



## Cooperative education is the key factor in raising a perfect person

Rustam ASTANOV<sup>1</sup>

Pedagogical center of Bukhara region

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

#### **Keywords:**

cooperation,  
methodology,  
education,  
training,  
school,  
team,  
continuity,  
knowledge,  
information,  
education,  
science.

### ABSTRACT

This article provides information about cooperative education and its priorities. Cooperative education focuses on students mastering science, gaining a deeper understanding of current events and reality, and increasing their interest in scientific activities.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp383-388>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Hamkorlikdagi ta'lim – komil insonni yetishtirishning asosiy omili

### ANNOTATSIYA

#### **Kalit so'zlar:**

hamkorlik,  
metodik,  
ta'lim-tarbiya,  
o'qitish,  
maktab,  
jamoat,  
uzluksiz,  
bilim,  
ma'lumot,  
fan.

Ushbu maqolada hamkorlikdagi ta'lim va uning ustuvor tomonlari haqida ma'lumot berilgan. Hamkorlikdagi ta'limda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishi, hodisa va voqeyilikning mazmun- mohiyatini tushunishi, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishi yoritilgan.

<sup>1</sup> Head of the Department of Exact and Natural Sciences, Pedagogical Center of Bukhara region.

# Совместное образование - ключевой фактор воспитания совершенного человека

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

сотрудничество,  
методология,  
образование,  
обучение,  
школа,  
коллектив,  
преимственность,  
знания,  
информация,  
наука.

В данной статье представлена информация о совместном образовании и его приоритетах. Совместное обучение сосредоточено на том, чтобы учащиеся не только осваивали науки, но и глубже понимали суть происходящих событий и действительности, а также повышали интерес к научной деятельности.

Zamonaviy maktabning vazifasi o'quvchilarga berilayotgan ta'lim sifatini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va rivojlantirish, oila, maktab va jamoatchilik hamkorligiga asoslangan va boshqaruvning jamoatchilik shakli tashkil qilingan ochiq ta'lim muhitini amalga oshirish hamda bolalarning huquqlarini ta'minlash, bolaning sha'ni, g'ururini himoya qilish, bola uchun do'stona muhitni yaratishdan iborat.

Jamiyat, maktabdan ta'lim oluvchi shaxsni metodik shakllanishi, o'quvchilarni uzluksiz bilim olishlarini ta'minlashini, ularning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini rivojlantirishni, hayotiy va mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni, o'quvchida yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashni kutmoqda.

Maktabning faoliyati esa bolalar haqida g'amxo'rlik, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va eng muhimi ta'limda sog'lom muhitni tashkil etishdan iborat bo'lishi kerak.

Ta'limda sog'lom muhit nafaqat moddiy jihatlarni ko'zga tutadi, shu bilan birga maktabdagi o'zaro munosabat, oiladagi va jamiyatdagi muhitni ham nazarda tutadi. Ta'limda sog'lom muhitni qo'llab-quvvatlash maktab ma'muriyatidan tortib, o'qituvchi, ota-ona, mahalliy hokimiyat, maktab kichik xodimlari va o'quvchilarning ham majburiyatiga kiradi.

Hozirgi kunda maktabni qurib, uni barcha jihozlar bilan ta'minlash va barcha bolalarni maktab ta'limiga shunchaki jalb qilishini o'zi kifoya qilmaydi. Bugungi kunda maktab har tomonlama rivojlangan hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, sog'lom va himoyalangan, o'z kuchiga ishongan hamda o'z-o'zini boshqara oladigan shaxsni shakllantirishi kerak. Bunday shaxsni tarbiyalashda yaxshi maktab ya'ni tez o'zgaruvchan, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradigan, malakalarga ega bo'lgan pedagoglar jamoasi muhim o'rin egallaydi. Bu jamoada demokratik tamoyillar hukmronlik qiladigan ijodkorlik muhiti mavjud bo'lib, tashabbuskorlik, moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi. Bunday jamoani tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

- O'qitish jarayoni vaqtida bir-birini kuzatish yuli bilan bir-biridan o'rganish.
- Hamkorlikdagi rejalashtirilgan darslarni tashkil etish, butun faoliyatning barcha qirralaridan keng va samarali foydalanish.
- O'quvchilarning "bo'sh" joylarini aniqlash va kelgusida bu kabi kamchiliklar bo'lmasligi uchun yangi o'qitish usullarini (interfaol) rejalashtirish maqsadida o'quvchilar faoliyatini jamoa bo'lib tashkillashtirish.

- Fikrlash va tushunish uchun boshqa professional maqolalar va resurslarga ega bo'lish, o'qitish va ta'lim berishda ulardan samarali foydalanish.
- O'zaro bir-birimiz bilan nimani va qanday o'qitayotganimizni hamda o'zimizning o'qitish natijalari bilan o'rtoqlashish.
- Hamkasabani ma'nan qo'llab-quvvatlash, muvaffaqiyatlaridan xursandligingizni namoyon etish, unga hasad emas havas qilish, unday bo'lishga harakat qilish.
- Muammolarni hamjihat bo'lib aniqlash, o'rganish va tahlil etish, bartaraf etish yo'llarining tartibini belgilash.
- Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishdek uzluksiz faoliyatda "o'zingiz"ning o'rningiz bo'lishiga erishish.
- Jamoaviy faoliyatga yetaklovchi yechimlarga erishish uchun jamoaviy yechimlarni qabul qilish.
- Yordamga muhtoj, shuningdek yordam beruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash (ilmiy, metodik, pedagogik, psixologik)
- Metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, namunali dars ishlanmalari, test savollari va boshqa nazorat topshiriqlar to'plami kabi metodik ishlarni tayyorlashda har bir pedagog va jamoaning javobgarligini oshirish.

Yana bir jihat, jamoaning faoliyatini yaxshilash, ijodkorlik va sog'lom muhitni tashkil etishda hamkorlikdagi ta'limga e'tiborni kuchaytirish zarur. Hamkorlikdagi ta'lim bu ishchi guruhlarda ishlashdir, lekin har qanday guruhlardagi ish hamkorlikdagi ta'lim emas.

Hamkorlikdagi ta'limning 5 asosiy elementi mavjud. Bular:

1. O'zaro ijodiy bog'liklik
2. Shaxsiy mas'uliyat
3. "Yuzma-yuz" munosabatlar
4. Ijtimoiy malaka
5. Baholash

Shuningdek, hamkorlikdagi ta'limda guruhdagi o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki muzokaralar ishtirokchisi, o'zining fikrini qisqa, lo'nda va aniq bayon etuvchi guruh a'zosiga aylanadi. Guruhlardagi ochiqlik, o'zaro hurmat va yordam o'quvchilarni o'ziga jalb etadi. Bu esa o'quvchilarning davomatini yaxshilaydi, tirishqoqligini kuchaytiradi, o'zaro hamkorlikda fanlarni o'zlashtirish, hodisa va voqeiylikning mazmun- mohiyatini tushunish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Fanga e'tibor bilan qaraydigan va uni chuqurroq, mukammal o'rganishga harakat qiladi.

Hamkorlikdagi ta'limning muhim jihatlaridan yana biri o'quvchilarning bir-biriga tushuntirishlari, savol-javoblarda ishtiroklari ularning og'zaki nutqini, muloqot ko'nikmalarini hosil qiladi. Shuningdek, nutq, so'zlashuv, savol berish va javob berish madaniyatini shakllantiradi va rivojlantiradi. Bunday ta'lim turi o'quvchilarga faollikni, darsda qiziquvchanlikni va izlanishni tarbiyalaydi. O'zaro ijodiy munosabat, fikrlar almashinuvi, turli ma'lumotlar, turli qarorlar qabul qilish va o'rtoqlashish kabi fazilatlarini hamda sinfda ijodiy faollikni kuchaytiradi. Bu esa sinfda komanda bo'lib ishlash, muammo va masalalarni jamoa bo'lib hal etish va o'ziga hamda sinfdoshlariga nisbatan mas'uliyat ko'nliklarini shakllantiradi. Bu esa nafaqat o'quvchilardan balki o'qituvchidan ham darsga puxta tayyorlanib kelishini talab etadi.

Hamkorlikdagi ta'lim tabiatan o'quvchining faoliyatini tashkillashtiradi. Darsga puxta tayyorlanib kelish, uyga vazifani to'la bajarish, o'rtoqlashishi lozim bo'lgan

ma'lumotlarni aniq, lo'nda gapirib berishdek malakalarni hosil qiladi. Sinfdagi "a'lochi" va "past o'zlashtiruvchi" o'quvchilarga ajratmaydi. Aksincha o'quvchilarni bir-biriga bog'laydi, do'stlashtiradi, bir-biriga hamkor va qo'llab-quvvatlovchi yaqin insonga aylantiradi. Uncha muhim bo'lmagan ma'lumot yoki tushuncha xam guruh muhokamasida aniq, mukammal, turli asoslarga ega va chuqur ma'noli taklif yoki xulosaga aylanishi mumkin. o'quvchilar bir-birlarini tanqid qilishdan voz kechib, g'oyalarini tanqid qiladilar, qo'shimcha va takliflar kiritadilar, umumlashtirib, ijobiy xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Bunday ta'lim darsdagi o'quvchilarning intizomini yaxshilaydi, ko'proq bilimga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytiradi. O'qituvchilarning, qolaversa ma'muriyatning o'quvchilarga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Muxtasar qilib aytganda, hamkorlikdagi ta'limning ustuvor tomonlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. O'zaro ijodiy munosabat shakllanadi va rivojlanadi.
2. Har bir kishi o'zi uchun va guruhining boshqa a'zolari uchun javobgarlik hissini kuchaytiradi.
3. Guruhlarda aynan bir xil bilimli o'quvchilar emas, balki aralash guruhlar shakllanadi.
4. Shakllanayotgan guruhlarda ishonch, javobgarlik, jipsliklik rag'batlantiriladi.
5. Guruhda doimiy bir o'quvchi emas, balki har bir guruh a'zosi rahbarlik rolini bajaradi.
6. Muloqot ko'nikmalari shakllanadi, qo'llaniladi va rag'batlantiriladi va qo'llab-quvvatlanadi.
7. O'qituvchi doimiy ravishda guruh ishini kuzatib boradi, baholaydi va zarurat bo'lganda ularning ishiga aralashadi.

"Har bir odam, go'yoki alifbodagi harfga o'xshaydi, so'z yasash uchun o'zaro birikishi kerak" deb yozgan edi O.Mandelshtam. U qanchalik haq ekanligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Hamkorlikdagi ta'lim esa bugungi kunning talabi.

Bugungi globallashuv jarayonida voqea, hodisalarni o'rganish, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil etish har bir o'quvchi uchun juda muhim. Bunday har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashda tabiiy fanlarning o'rni muhim. Bu esa tabiiy fanlar o'qituvchilari oldida yangi, muhim maqsadlarni qo'yadi, ya'ni:

- Har bir bolaning atrof-muhitga bo'lgan tug'ma qiziquvchanligini rivojlantirish;
- Har bir bolaning so'z boyligini shuningdek, olam haqidagi bilimlarini oshirish;
- Bolalarda "ilmiy fikrlash"ni hosil qilish. Bu aniq va puxta kuzatuvlar olib borishni, aniq, zarur ma'lumotlarni to'plash, o'z faoliyatida savollarni shakllantirish, bu savollarga javob olish usullari va imkoniyatlarini topishni nazarda tutadi. Va nihoyat, olingan bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida faol bo'la olishini rag'batlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, materiallarni yangicha qo'llash, shuningdek o'z fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish;

- O'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayoniga jalb etib, yuqori sifatli dars berishni ta'minlash.

- Bu o'quvchilarga umr bo'yi o'qish strategiyasini ishlab chiqishga amaliy yordam beradi.

Asosiy e'tiborni quyidagilarga yo'naltirish lozim.

- hamkorlikdagi ta'limni yo'lga qo'yish

- o'quvchi shaxsini ijodiy rivojlantirish
- ta'limni interfaol metodlarini amaliyotga tadbqiq etish.
- boshlang'ich sinf o'quvchilarni kompyuter savodxonligi oshirish.
- o'quvchilarda bag'rikenglikni shakllantirish
- maktabdan tashqari ta'limning yangi mazmunini shakllantirish
- ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish
- maktab bitiruvchilari kasbini o'zi tanlashiga ko'maklashish
- bolani kuchli tomoniga suyanish
- bolaning xatolariga urg'u berishdan qochish.
- bolaga mamnunligingizni ko'rsatish.
- bolaga nisbatan muhabbat va hurmatni ko'rsata bilish va ko'rsatish istagining bo'lishi.

- katta topshiriqlarni bola bajara oladigan kichikroq -topshiriqlarga bo'lib bajarishiga yordam bera olish.

- bola muvaffaqiyatlariga e'tiborli bo'lish.
- bola bilan o'zaro muloqatda hazil mutoyibani ishlatish.
- bolaning topshiriqlarini bajarishga bo'lgan barcha urinishlaridan xabardor bo'lish.
- Bola bilan birgalikda o'zaro harakat qila bilish.
- imkoni bor joyda bolaning o'ziga, muammolarni hal etish uchun izn bera bilish.
- intizomiy jazolardan qochish.
- bolaning o'ziga xosligini qabul qila olish.
- bolaga nisbatan ishonch va mehr ko'rsatish.
- ko'tarinkilikni namoyish etish

O'quv jarayonida faol ishtirok etadigan o'quvchilar o'quv faoliyatiga ko'proq qiziqishadi va darslarga borishga ko'proq harakat qiladilar. O'quvchilar o'zaro aloqada bo'lgan sinf muhiti o'quvchilarning yuqori motivatsiyasiga, o'quv jarayonida faol ishtirok etishga va darslarga qatnashishga yordam beradi. Talabalarning birgalikda ishlashi barcha talabalar uchun individual, raqobatbardosh ta'lim tizimidan ko'ra yaxshiroq natijalarga olib keladi, bunda ko'plab talabalar raqobatbardosh ta'limda ortda qoladilar, o'rtacha yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar hech narsaga erishmaydilar. Birgalikda o'rganishda barcha talabalar foyda oladi. Ular bir-birlariga yordam berishadi va o'zaro yordam muhitini yaratadilar, bunda barcha talabalarning natijalari yaxshilanadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan hurmatini, ishonchini oshiradi.

Birgalikda o'rganish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi, shuningdek, ma'lumotni eslab qolish va mavzuga bo'lgan qiziqishni yaxshilaydi, chunki o'quvchilarning o'ziga bo'lgan hurmati oshadi. Bu yaxshi o'qish natijalari talabalarning o'zini o'zi qadrlashini oshiradi, bu esa o'z navbatida fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'quv faoliyatini yaxshilaydi. Talabalar o'zlarining ijobiy natijalarini o'z guruhining boshqa a'zolari bilan baham ko'rishadi va shu bilan o'zlarining va o'zgalarning hurmatini oshiradilar. Ba'zi kooperativ ta'lim tuzilmalari talabalarga faxriy sertifikatlar berish yoki o'qituvchilar tomonidan butun guruh yoki alohida a'zolarining ilmiy yutuqlari uchun guruhlarini tan olish orqali bu ta'sirdan foydalanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Стратегия и методы обучения и образования.

<http://www.u.arizona.edu;80/ic/edtech/strategy.html>

2. Проект совместного обучения.

<http://www.media.mit.edu/~andyd/mindset/design/clc.html>

3. Структуры совместного обучения.

<http://www.wcer.wisc.edu/nise/cll/CL/clhome/ash>

4. Влияние методов совместного обучения на успеваемость.

<http://scholar.lib.vt.edu/ejournals/JVTE/v13n2/Abu.html>

5. Что такое класс совместного обучения?

<http://www.arp.sprnet.org/Admin/supt/collab2/htm>